

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA DARSLARIDA FANLARARO
INTEGRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH.**

Denov tumanidagi 19-umumi o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Norboyeva Nargiza Ro'ziyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada fanlararo integratsiya, boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" darslarida integratsion ta'limni yo'lga qo'yishning ayrim talab va shartlari yoritilgan bo'lib, integratsion darsning umumi xususiyatlari atroficha bayon etiladi. Tarbiya fanining maqsadi, tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchi uchun adabiyotlar ro'yxati, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya darslari orqali o'quvchilarga bilim berishda o'zaro fanlararo aloqadorlik integratsiyalash orqali vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash vatanparvarlik hislarini oshirishda tarbiya fanida qo'llaniladigan metodlar to'g'risida, hozirgi rivojlanayotgan davrda insonlarning tarbiya faniga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish zarurligi to'g'risida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, vatanparvarlik, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya fani, darslik, integratsiya, ta'lim samaradorligi, integratsion darslar.

Аннотация: В данной статье выделены межпредметная интеграция, некоторые требования и условия организации интегрированного обучения на занятиях «Образование» в начальных классах, а также подробно описаны общие особенности интегрированного урока. Цель педагогической науки, перечень литературы для учителя при преподавании педагогической науки, о методах, используемых в педагогической науке, для воспитания чувства патриотизма через интеграцию междисциплинарности в воспитании младших школьников через Уроки образования Существуют мнения о необходимости повышения внимания людей к педагогической науке в развивающийся период.

Ключевые слова: начальная школа, патриотизм, духовность,

образование, педагогика, учебник, интеграция, эффективность обучения, интегрированные уроки.

Abstract. In this article, interdisciplinary integration, some requirements and conditions for the introduction of integrated education in the "Education" classes in elementary grades are highlighted, and the general features of the integrated lesson are described in detail. The purpose of the science of education, a list of literature for the teacher in teaching the science of education, about the methods used in the science of education to increase the sense of patriotism by integrating interdisciplinarity in the education of primary school students through education lessons There are opinions about the need to increase people's attention to the science of education in the developing period.

Key words: elementary school, patriotism, spirituality, education, educational science, textbook, integration, educational efficiency, integrated lessons.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni tarbiyalash mezonlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsnинг tarbiyasiga bevosita aloqador bo'lgan fazilatlarni singdirish, o'quvchilarining ongida umuminsoniy qadriyatlarni va yuksak ma'naviyatni chuqur singdirish masalalariga ijodiy e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o'zbek Pedagogika fani tarixida ilk bor — Tarbiya yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choratadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani kontsepsiysi tasdiqlandi [1,1]. Qarorga binoan:

- Tarbiya fani amaldagi quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi:
 - 1) boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan Odobnoma va Vatan tuyg'usi o'quv fanlari;
 - 2) yuqori sinflarda o'qitiladigan Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar hamda Dunyo dirlari tarixi o'quv fanlari.

Boshlang'ich sinflarda tarbiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek, ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va oshirish shu bilan birga ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni kamol topishida ota-onasiga, tarbiyachi, o'qituvchi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tarbiya” darslari farzandlarimizda insof, adolat, iymon-e'tiqod, vijdon va mehr-muhabbat hislarini tarbiyalashga qaratilgandir. “Tarbiya” darslari o'quvchilarini xalqimizning unitilayotgan boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosi, so'z san'ati, xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlari bilan tanishtiradi.

Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir. Inson hayotining aynan yoshlik, bolalikdavrida o'rganilgan har qanday bilim, ko'nikmalar u ulg'aygach erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo'lib xizmat qiladi. Ulug' allomalarimizdan Abdulla Avloniy tarbiyaga quyidagicha e'tibor qaratgan: “Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasidir”, - degan edi [2, 69].

Ta'lif-tarbiya taraqqiyoti mamlakat ravnaqi va taqdiriga daxldor masaladir. Yurtning jadal rivojlanishi, xalqining farovon yashashi davlatdagi yoshlarning ta'lif-tarbiyasi, ularga yaratilayotgan sharoitlarga chambarchas bog'liq.

Hozirgi kunda maktab o'quvchilariga o'tiladigan Tarbiya darslik kitobi o'qituvchilar uchun umumiyligini qo'llanmalar, ya'ni unda bu tarbiyaga oid tushunchalar va masalalar keng qilib tushuntirilib rasmlar asosida boyitib

tasvirlangan. Bundan tashqari o‘quvchilarga bu bilimlarni berish uchun bolalar bilan suhbat tashkil etilib, bu suhbatda o‘quvchilar tabiatda qanday turdagini o‘simliklar, daraxtlar borligi, ularga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi to‘g‘risida o‘z mulohazalarini bayon etadilar.

1-sinf tarbiya darsligi mavzular ro‘yxatida Vatanparvarlikka bag‘ishlangan 1-mavzu:—Vatan ishonchi mavzusi 1-sinfga qadam qo‘ygan o‘quvchilarning vatan tushunchasi darajasini aniqlash, inf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish vazifalasi turadi.

2-mavzu:—Mening mahallamda yashash yaxshi. Bu mavzularni o’zaro fanlar bilan interatsiya asosida tashkil etish, o‘qituvchidan pedagogik mahorat talab etadi.

So‘zning o‘rnini top metodi. O‘quvchilarga she’riy parchadan tushib qoldirilgan so‘zlar alohida pastgi qatorda saqlanadi. Masalan,
.....,vatanim,
quvnab ko‘rganim.....
.....kulganim,
.....gulshanim.

(P.Mo‘min)

Tushirib qoldirilgan so‘zlar: Vatanjonim,Ko‘zim,Istiqlol,O‘zbekiston.

Muammoli ta’lim metodi. Ular odatda hikoya shaklida taqdim etiladi va ko‘pincha muammoni hal qilishni, o‘quvchilardan savolni mustaqil ko‘rib chiqishni so‘raydi, so‘ngra o‘quvchilarga uni juftlikda, nihoyat, butun inf bilan birgalikda muhokama qilish imkoniyatini beradi. Ushbu faoliyat chuqurroq fikrlashni, muammolarni hal qilishni yoki tanqidiy tahlilni rag‘batlantirish uchun savollar bilan ideal ishlaydi. Guruh muhokamalari juda muhim, chunki ular o‘quvchilarga fikrlash jarayonlarini ifodalash imkonini beradi.

Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy birbirini taqozo etuvchi va birbiriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o‘quv fanlarini integratsiyalash uchun qo‘llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ishharakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko‘zda tutadi [5, 366].

Agar XIX – XX asrlar oralig‘ida jahon pedagogikasida A.Gerd, D.Kaygarodov, A.Pavlov singari olimlar boshlang‘ich maktabni tashkil qilish, unda olamni anglash jonli va jonsiz predmetlar haqida yaxlit tushunchalarni shakllantirish orqali amalga oshirilsa, o‘quvchining biluv faoliyati samarali kechishi haqidagi o‘z qarashlarini bayon qilgan bo‘lsalar, YAn Komenskiy, D.Lokk, M.Pestalotsi, K.Ushinskiy qarashlarida ayni ta’lim samaradorligiga fanlararo aloqa vositasida erishish mumkinligi asoslandi. Ushbu qarash XX asrning oxirgi o‘n yilliklariga qadar S.Baranova, N.Talizina, M.Lvov, N.Svetlovskaia, E.Koladin kabilar ishlarida ancha takomillashtirildi. Boshlang‘ich ta’limdagi fanlararo va fanga oid tushunchalar aloqadorligiga tayanib ta’lim samaradorligiga erishish yo‘llari, usul va vositalar XX asr oxiriga qadar Rossiyalik olimlar N.Drujinina, T.Nazarova, I.Blinova, R.Matyushova tomonidan keng ko‘lamda tadqiq qilindi.

Chet el ta’limi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo‘luvchi integratsiyalashgan fanlar ko‘pgina mamlakatlar o‘quv dasturlaridan allaqachon joy olgan. Ularda asosiy e’tibor o‘quvchilarga boshlang‘ich ta’lim orqali faqat o‘quv predmetlari asosida bilim berishni emas, balki ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ko‘pgina xorijiy mamlakatlar boshlang‘ich maktablarining o‘ziga xos xususiyati integratsiyalangan kurslar bo‘yicha ta’lim bo‘lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson, tabiat, jamiyat, fan, san’at bilan suhbatlashadigan; faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o‘simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir. [4,86].

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning eng ilg‘or texnologiyalariga asoslanish lozim. Shu ma’noda bunday texnologiyalarning eng muhimlarini diqqatingizga taqdim etamiz.

1. O‘qitishning elektron-modulli texnologiyasi. Bu texnologiya an’anaviy va noan’anaviy dars shakllarida kompyuter asosida o‘qitishga tayanadi. Unga ko‘ra, kompyuterda maxsus dastur vositasida o‘qituvchi tomonidan dars materiallari to‘liq tayyorlanadi va ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga qarab taqdim etib boriladi. Bu texnologiyada dars materiallarini yangi ma’lumotlar asosida yangilab

borish va multimediyali axborotlarni berish imkoniyatlari mavjud.

2. O'qitishning masofaviy ta'lif texnologiyasi. Bu texnologiyaga ko'ra, "Tarbiya" fani onlayn tarzida o'qitiladi. Unda ta'lif oluvchilar bevosita virtual aloqaga kirishadi. Ayni paytda, mazkur texnologiyada mustaqil ta'lif topshiriqlari ko'p bo'lishi taqozo etiladi. Ta'lif oluvchilar aynan mustaqil ta'lif topshiriqlarini bajarishi bilan fanni o'zlashtiradi.

3. Ustoz-shogird texnologiyasi. Bu texnologiyaga ko'ra, har bir o'quvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga biriktiriladi. Bunda har bir o'qituvchi o'z o'quvchisining tarbiyalanish jarayonini kuzatib boradi va bu ishlarni "Tarbiya" fani o'qituvchisi muvofiqlashtiradi. Mavjud ta'limga oid me'yoriy hujjatlar asosida o'quvchisining tarbiyalanganlik darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchilar Maktab rahbariyati tomonidan moddiy rag'batlantirib boriladi. Mazkur texnologiya boshlang'ich ta'limga "Tarbiya" fanini o'qitishda eng muhim yondashuvlardan hisoblanadi [3,95].

Bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur fanning didaktikasi o'ziga xos tarzda va pedagogik tajribalarning ilg'or yondashuvlari asosida ishlab chiqilishi kerak. Shu sababli oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Tarbiya" fani didaktikasi bo'yicha tushuncha, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi [2,36].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta'lif maqsadlarini amalgalashishda qulay shartsharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o'quvchining vaqtin, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo'riqishlarning oldi olinadi, ta'lif samaradorligi oshadi. O'quvchilar zarur ko'nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o'quv predmetlari mazmunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori "Umumiyo'rta ta'lif pedagoglar.org

muassasalarida “tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida Toshkent sh. 2020-yil 6-iyul,422-son <https://lex.uz/ru/docs-4885018>

2. Onaxon Jabborova, Zuxra Umarova “boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanini o‘qitish metodikasi” o’quv qo’llanma. «zebo print» Toshkent 2022-y. 112-b.
3. **M.J. Saidova** “Boshlang‘ich ta’limda xalqaro tajribalar: yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Buxoro. 2023-06-22 819-b.
4. N. R. Kutlimuratova “Boshlang‘ich sinflarda integratsion o‘qitishning o`ziga xos xususiyatlari” ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 560-b.
5. Muxtarova, L. A. Use of multimedia technologies in the educational process. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2021 11-son, 1781-1785-b.